

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО
БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР
ВА ИСТИҚБОЛЛАР

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2022 йил, 29 март

Bu metod talabalarda maʼlum bir faoliyat yoki tushunchalarning ketma-ketligi, uzluksizligi, bogʻliqligi, bosqichma-bosqichligi hamda tartibini aniqlash malaka va koʻnikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Buning uchun pedagog tomonidan maʼlum ketma-ketligi mavjud boʻlgan faoliyat yoki tushunchaning oʻrinlari almashtirilgan holda beriladi. Talabalar ushbu ketma-ketlikni topishi, tartibga keltirishi, oʻz oʻrniga qoʻyib chiqishi lozim. Bu topshiriqda talabalar oʻz javoblarini va guruhiy javobni berish imkoniyatiga ega boʻladilar. Quyida “Sodda gap va uning turlari” mavzusiga oid Blits topshirigʻidan namuna keltiramiz

№	Topshiriqlar	Tala ba javobi	Toʻgʻ-ri javob	Javoblar
1	Gʻalabani ishonch bilan zabt etdim.			Ikki bosh boʻlakli yoyiq gap.
2	Kurashsiz gʻalabaga erishib boʻlmaydi.			Nominativ gap
3	Bahor keldi.			Infinitiv
4	Qimirlagan qir oshar.			Egasi topiladigan gap.
5	Birovni kutish. Bundan qiyin ish yoʻq.			Ikki bosh boʻlakli gap
6	Birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar.			Egasi topilmaydigan gap
7	Bahor. Dalalar yashil libos kiyib olgan.			Qoʻshma gap.
8	Xalq buyuk murabbiydir.			Ikki bosh boʻlakli yigʻiq gap.

“Ha va yoʻq” testi. Test qanday shaklda, qanday koʻrinishda boʻlmasin, oʻquvchilar va talabalar bilimni nazorat qilish, nazariy oʻrganilgan mavzularni amalda qoʻllay olish koʻnikma va malakalarni hosil qilishda eng qulay va eng maqbul variantlardan hisoblanadi. Taʼlim jarayonida oʻrganilayotgan mavzuning xususiyatlarini hisobga olgan holda “Ha va yoʻq” testidan ham foydalanamiz. Bu testning oʻziga xos tomoni shundaki, talaba olgan bilimlariga tayanib, til faktlarini analiz, sintez va umumlashtirish orqali ikki javodan birini tanlaydi. Bu kabi yopiq testlarini tashkil etishda kompyuter juda qulay vositadir. Quyida “Feʼllarning yasalishi” yuzasidan tashkil etilgan test namunasi keltiramiz.

№	Savollar	ha	yoʻq
1	Feʼllar morfologik usulda yasaladimi?		
2	Feʼllar morfologik-sintaktik usulda yasaladimi?		
3	<i>-la</i> qoʻshimchasi yordamida butun sondan feʼl yasaladimi?		
4	<i>-la</i> qoʻshimchasi yordamida sondan feʼl yasaladimi?		
5	<i>-la</i> qoʻshimchasi yordamida olmoshdan feʼl yasaladimi?		
6	<i>-la</i> qoʻshimchasi yordamida oʻzlik olmoshidan feʼl yasaladimi?		

“Venn diagrammasi” metodi.

“Venn diagrammasi” metoditalabalarda tizimli fikrlash, solishtirish, tahlil koʻnikmalarini rivojlantiradi. “Venn diagrammasi”-grafik koʻrinishda boʻlib ikki va undan ortiq til faktlarini tahlil qilish va oʻrganishda qoʻllaniladi.

Diagramma ikki va undan ortiq aylananing kesishmasidan hosil boʻladi. Bu metoddan ayni bir mavzu doirasida yoki turli mavzularni oʻrganishda foydalanish imkoniyatlari mavjud. Masalan, sifat soʻz turkumi oʻrganilganda “Sifatlarda daraja kategoriyasi” mavzusida “Venn diagrammasi” metodidan foydalanilsa, “Sifat va sifatdosh”, “Ravishdosh va ravish” mavzusida turli soʻz turkumlari oʻrganilgandan soʻng, “Leksikologiya” va “Soʻz tarkibi” mavzularida til faning ikki boʻlimi oʻrganilgandan soʻng foydalanish mumkin.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilari dars berish metodikasini na faqat metodika darslarida, balki har bir darsda va har bir oʻqituvchidan oʻrganadilar. Ona tili amaliy mashgʻulot darslarida qoʻllaniladigan turli innovatsion metodlar talabalarning kelgusi faoliyatlarida PIRLS, PISA dasturlari asosida ishlashlarida, oʻquvchilarni imtihonlarga muvaffaqiyatli tayyorlashlarida katta ahamiyatga ega boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, PF-6108-son, 2020-yil 6-noyabr

2. Hamroyev M., Muhameova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldoshe-va Sh. Ona tili (darslik) Moliya- iqtisod, Toshkent, 2007-yil.

3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi, Toshkent, Noshir, 2009.

4. <https://baxtivor.uz/yangi-pedagogik-texnologiya-metodlariga-qisqacha-tarif/>

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIGIDA MASHQLARGA XALQARO BAHOLASH DASTURI BO'YICHA YONDASHUV

M. R. Hamroyeva, BuxDU o'qituvchisi

Z. R. Homidova, BuxDU talabasi

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida xalqaro baholash dasturi bo'yicha yondashuv va uning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Bunda fikrlar darslikdagi mashqlar asosida izohlangan.

Kalit so'zlar: ta'lim, PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS, darslik, savodxonlik, mashq, kompetensiya, axborot, Anvar Obidjon.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Qayd etish lozimki, Prezidentimiz farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo'yicha jahonning birinchi o'ttizta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta'lim sifatini baholash bo'yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi.

Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat O'zbekiston, balki, jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarning monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.


Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

PISA – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi, PIRLS – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot, TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring, ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda 3-sinf o'qish darsligi asosida Pirls test namunasiga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin : „ So'nggi axborot “ Anvar Obidjon she'ri (Bo'lib o'tti qishloqda kecha zo'r shamol.) Ushbu she'r nima haqida yozilgan.?



B)



D)



Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'quvchi dastlab shu she'rni yodga olishi, she'r mazmuni va voqealar rivojini yodga olib, fikrlab javobni belgilashi talab etiladi.

пассив ижтимоийлашув босқичи ҳисобланса, етуклик даври меҳнат босқичида бошлангич касбий фаолиятни ўзлаштиришнинг фаол шаклига ўтади.

Турли халқлар ижтимоий амалиёти ранг-баранг бўлсада, бу ижтимоийлашув даври учун барча тарихий шароитларга хос икки типик жиҳатни санаб ўтиш мумкин.

Биринчиси – бу иқтисодий мустақил агент ролини ўзлаштириш. Иккинчиси – ўз оиласини куриш. Бу инсоннинг биологик турни давом эттириш жараёнидаги иштирокини англатади. Жамиятнинг ривожланганлик даражаси шахс ижтимоийлашуви даври давомийлиги ва сифатига ўз таъсирини кўрсатади. Айрим жамиятларда таълим олишнинг ёпиқлиги аксарият инсонларнинг иккиламчи ижтимоийлашувдан “сақраб” етуклик даври ижтимоийлашувига ўтишига сабаб бўлади. Иқтисоди ривожланган жамиятларда технологияларнинг такомиллашуви, ишлаб чиқариш жараёнларига илм-фан ютуқларининг тобора фаол татбиқ қилиниш жараёнларининг жадаллашуви оммавий саводхонлик заруратини келтириб чиқарди. Бу эса иккиламчи ижтимоийлашув даврининг мажбурийлигини шарт қилиб қўйди[2. 266]¹.

Демак, педагог, тарбиячи ва ота-оналарнинг ижтимоийлашув жараёни босқичларининг ўзига хос хусусиятларини билиши ҳамда уни онгли ва тўғри йўналтира олиши алоҳида ижтимоий-педагогик аҳамият касб этади. Айниқса, кичик мактаб ёшидаги болалар ижтимоийлашувига бўлган эътибор ёки эътиборсизлик унинг бутун ҳаёт йўлини белгилашини унутмасликлари зарур.

Мақолада шахс ижтимоийлашувига таъсир қилувчи омиллар хусусида ҳам тўхталишни эътироф этгандик. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида омил сўзи [арабча-сабаб, таъсирчан куч] "иш-ҳаракат, воқеа-ҳодиса, шу кабининг юзага чиқиши, содир бўлиши учун сабаб бўлган нарса, сабаб" сифатида талқин қилинади [1.332]². Ижтимоийлашув жараёнида индивиднинг жамият билан турли шакллардаги ҳамкорлиги натижасида шахсга нисбатан муайян таъсири жамланмасига ижтимоийлашув омиллари деб юритилади. Ирсият, ижтимоий муҳит, таълим ва тарбия сингари шахс шаклланиши ва ижтимоийлашувида ҳар бир индивид учун ноёб аҳамият касб этадиган қатор омиллар мавжуд.

Бугунги кунда ижтимоийлашувнинг қуйидаги манбалари ва омиллари ажратилади:

Оила инсон ҳаётида энг катта из қолдирадиган асосий ижтимоий институтдир. Инсон ўз оиласидан, ота-она ва қариндошлар ўртасидаги муносабатлардан ўрнак олади ва уни ўз муносабатларига ўтказди; Таълим тизими - бу инсон ўзининг келажакдаги касбий йўлини, ишининг ўзига хос хусусиятларини танлаши ва у бўйича бевосита билим олиши мумкин бўлган ижтимоий институтдир;

Оммавий ахборот воситалари - инсоннинг дунёқарашига норасмий даражада таъсир қилади. Кўпгина оммавий ахборот воситалари жамият ҳаётида муҳим рол ўйнайдиган муайян ижтимоий жараён ва ҳодисаларга муносабатга таъсир қилиши мумкин;

Жамоат ташкилотлари қўшимча ижтимоий институтлар бўлиб, улар инсон ўз ваколатларини кенгайтириш ёки бир соҳага чуқур кириб бориш ва уни ривожлантириш ғояларини таклиф қилишга хизмат қилади.

Шахс ижтимоийлашувида уни мутолаага ўргатиш ўта муҳим. Бунда ота-она ва бошлангич синф ўқувчисининг ролини алоҳида эътироф этиш керак. Бола ижтимоийлашуви ва ўзлигини ифода этишида шахсий кенглик муҳити боланинг ўз алоҳида хонаси, кровати, шахсий буюмлари, ўқув қуроллари ва иш столининг бўлиши болаларнинг баъзида ёлғиз қолишлари, ўйлашлари, хатти-ҳаракатларини режалаштириб олишларида ёрдам беради.

Бола ижтимоийлашувининг энг асосий шarti – бу таълим. Таълим воситасида бола атрофдаги олам, табиат ва жамият қонуниятлари, аждодлар ўғитини ўзлаштиради, илмий дунёқарашини шакллантиради. Жараёни тўғри ташкил қилишда оила ва мактаб ҳамкорлиги, фикрлари, тасаввурларини тўғри йўналтириш, ўзи еча олмаган маиший муаммоларида ёрдам бериш унинг муваффақиятли ижтимоийлашувини таъминлайди.

Ҳозирги шароитда оила ва таълим ва бошқа санаб ўтилган омиллар ўз ўринларини таъсир доираси тобора ошиб бораётган ОАВ ҳамда Интернет каби ижтимоийлаштириш агентларига бўшатиб бермоқда. Интернет орқали ёшлар тушиб қолаётган виртуал олам оилада, тенгдошлари даврасида реал ҳаётда дуч келадиган ички ва ташқи зиддиятларни енгиб ўтиш, кайфияти, қарашлари, ҳаётий позицияларида, ҳиссиёт ва эмоцияларини билдиришда ҳаракатлар эркинлигини тақдим этади, ўз навбатида, болада интернет-қарамлик ҳолатининг шаклланишига олиб келади. Шунингдек, глобал тармоқдаги зўровонликнинг тарғиботи шахс шаклланишига салбий таъсир

¹ Зуннунов А. Педагогика тарихи дарслик.Шарқ .Т.2004 266-бет.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат нашриёти.Т:332-бет